



BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA EKOLOGIK TARBIYANI SHAKLLANTIRISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARNING TUTGAN O'RNI

Karamatova Dilduza Sadinovna

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti
Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi kafedrasida dotsenti, PhD.

Allaberdiyeva Shohista Dilshod qizi

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti
Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 1- bosqich talabasi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.19108682>

Annotatsiya. Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik tarbiyani shakllantirishda zamonaviy ta'lim texnologiyalarining qanchalik ahamiyatli ekanligi yoritilgan. Ekologik ongni rivojlantirishda multimedia vositalari, interaktiv metodlar va raqamli ta'lim resurslarining pedagogik imkoniyatlari tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari zamonaviy texnologiyalar ekologik bilimlarni samarali o'zlashtirish va tabiatga mas'uliyatli munosabatni shakllantirishga xizmat qilishini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: ekologik tarbiya, boshlang'ich ta'lim, zamonaviy texnologiyalar, ekologik ong, pedagogik texnologiya, multimedia, ekologik madaniyat, interaktiv metod, ekologik bilim.

Hozirgi davrda ekologik muammolarning kuchayib borishi ta'lim tizimida ekologik madaniyatni shakllantirish masalasini dolzarb vazifaga aylantirdi. Shuning uchun global ekologik muammolar ta'lim tizimi oldiga tabiatga mas'uliyatli avlodni tarbiyalash vazifasini qo'yimoqda.

O'zbekiston Respublikasining 2019-yilgi 434-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Ekologik ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi" bu boradagi huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi [1].

Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va atrof-muhitni asrash g'oyalarini yosh avlod ongiga singdirish ta'lim jarayonining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi [16, 17].

Pedagogik tadqiqotlarda ekologik tarbiya shaxsning tabiatga ongli munosabatini shakllantiruvchi uzluksiz jarayon sifatida talqin etiladi [18, 19].

Boshlang'ich sinf yoshidagi o'quvchilar psixologik jihatdan sezgir, kuzatuvchan va taqlidga moyil bo'lganligi sababli ekologik tasavvurlar aynan shu davrda samarali shakllanadi [20, 21]. Shu bois, ekologik ta'limni zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy ta'lim vositalari o'quvchining bilish faoliyatini faollashtirib, bilimni ko'rgazmali tarzda o'zlashtirishga yordam beradi [4].



Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik savodxonlik va madaniyat ta'lim-tarbiya muassasalari va oila muhitida amalga oshiriladi. Ekologik tarbiya o'quvchilarda tabiat va inson o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni anglash, ekologik muammolar mohiyatini tushunish hamda ekologik mas'uliyatni rivojlantirishga xizmat qiladi [5]. Boshlang'ich ta'limda bu jarayon ko'rgazmalilik, amaliy faoliyat va kuzatish metodlari orqali samarali amalga oshiriladi [6].

Zamonaviy texnologiyalar ekologik ta'lim mazmunini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Multimedia vositalari orqali berilgan ma'lumotlar o'quvchilarning eslab qolish darajasini oshirishi ilmiy tadqiqotlarda isbotlangan [20]. Animatsiya va videomateriallar yordamida tabiatdagi murakkab jarayonlar bolalar uchun sodda va tushunarli shaklda namoyon etiladi [3].

Interaktiv metodlardan foydalanish o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, omma oldida fikrini erkin bayon eta olishini rivojlantiradi. Muammoli vaziyatlar asosida tashkil etilgan topshiriqlar bolalarni sabab va oqibatlarni tahlil qilishga o'rgatadi [22]. Bu esa boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik tafakkurning shakllanishiga xizmat qiladi.

Raqamli texnologiyalar, jumladan virtual ekskursiyalar va interaktiv platformalar o'quvchilarga turli ekologik hududlarni kuzatish imkonini beradi. Bunday yondashuv ekologik bilimni real hayot bilan bog'lashga yordam beradi hamda ekologik ong rivojlanishini tezlashtiradi [7, 8].

Tilshunos olim A.Xojiyev ta'kidlaganidek, ta'lim jarayonida tushunchalarni aniq va sodda ifodalash o'quvchilarning mazmunni chuqur anglashiga xizmat qiladi [24]. Shu jihatdan ekologik mavzularni tushuntirishda sodda, ravon va tushunarli nutqdan foydalanish boshlang'ich sinfda muhim metodik talab hisoblanadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik tarbiyani shakllantirish kelajakda ekologik madaniyatli jamiyatni rivojlantirishning muhim omili hisoblanadi.

Zamonaviy texnologiyalar yordamida tashkil etilgan ta'lim jarayoni o'quvchilarning ekologik bilimlarini mustahkamlab, ularning tabiatga ongli munosabatini rivojlantiradi [9, 10]. Natijada ekologik ta'lim nazariy bilim darajasida qolmay, o'quvchilarning kundalik xulq-atvoriga singib boradi. Shu sababli boshlang'ich ta'limda ekologik tarbiyani zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish pedagogik samaradorlikni oshiruvchi muhim omil sifatida namoyon bo'ladi

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yildagi 434-son "Ekologik ta'limni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Qarori.





2. Ishmuhamedov R., Yo'ldoshev M. Innovatsion pedagogik texnologiyalar. – T.: 2020.
3. Jonassen D. Learning with Technology. – New York, 2018.
4. Karamatova D.S. Kichik maktab yoshidagi bolalarda tabiatga, jamiyatga va o'z-o'ziga nisbatan mas'uliyatli munosabatlarini tizimli rivojlantirish // "Образование и наука в XXI веке" Международный научно-образовательный электронный журнал. Выпуск № 25 (том 3), март, 2022.
5. Karamatova D.S. Zamonaviy ekologik ta'limda bolalarning tabiatga, jamiyatga va o'z-o'ziga nisbatan mas'uliyatli munosabatlarini shakllantirish imkoniyatlari // Miasto Przyszłości. Volume 29 (2022) of ImpaktFactor: 9.2. Retrieved from <https://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/747>. 194-196 b.
6. Karamatova.D.S. O'quvchilarda atrof-muhitga ongli munosabatni shakllantirish yo'llari // O'zbekiston respublikasi xalq ta'limi vazirligining ilmiy-metodik jurnal. Toshkent, 2022. – № 3-son (may-iyun) -B. 104-107.
7. Karamatova D.S. Zamonaviy ekologik ta'lim mazmunida integrativ yondashuvni ta'minlash // Муг'alлим хэм билимлендирий. – № 3. – Nukus, 2022 – B. 90-95.
8. Karamatova.D.S. Integrativ yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ekologik madaniyatini rivojlantirish // TDPU Ilmiy axborotlari ilmiy-nazariy jurnal.2023 yil,7-son.331-338 b.
9. Karamatova D.S. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ekologik madaniyatini shakllantirishda meta-predmetli yondashuv // Kasb-hunar ta'limi. Ilmiy-uslubiy, amaliy, ma'rifiy jurnal. 2024, 5-son.249-254 b.
10. Karamatova D.S. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ekologik ta'lim-tarbiya berishning muhim vazifalari // XXI asr ko'nikmalarini ommalashtirishda talabalarning roli: Xalqaro ilmiy-amaliy onlayn konf. material. 2022-yil 18-noyabr. – Jizzax, 2022. – B. 464-468.
11. Karamatova D.S., Safarbayeva R.N., Murodova M.M. Bo'lajak pedagoglarning integrativ yondashuv asosida ekologik madaniyatini shakllantirish // "Образование и наука в XXI веке" Международный научно-образовательный электронный журнал. Выпуск № 25 (том 3), март, 2022. – B.950-955.
12. Karamatova D.S., Tolliyeva G.R., Qilichova M.J. O'quvchilarda ekologik ong va ekologik madaniyatni rivojlantirish dolzarb pedagogik muammo sifatida // "Образование и наука в XXI веке" Международный научно-



образовательный электронный журнал. Выпуск № 25 (том 3), март, 2022. – В.956-962.

13. Karamatova D., & Mahmudova N. (2025). Tarbiya jarayonini tashkil etishda o'qituvchining kreativ yondashuvi // Theoretical Aspects In The Formation Of Pedagogical Sciences, 2025, 4(7), 133-138. Zenodo. <https://doi.org/10.5281/zenodo.15210702>

14. Mayer R.E. Multimedia Learning. – Cambridge University Press, 2009.

15. Norbo'tayev X.B. Boshlang'ich ta'limda ekologik xafvsizlik madaniyatini takomillashtirish. Некис-2022. -Б. 93-97.

16. Салаева М.С., Бекназарова Х.Х. Бошланғич таълим ўқувчиларини ижтимоий мобиллигини ривожлантириш // Eurasian journal of social sciences, philosophy and culture. Innovative Academy Research Support Center UIF = 8.2 | SJIF = 6.051 Volume 2 Issue 4, April 2022. Pages 136-139. <https://doi.org/10.5281/zenodo.6511330>

17. Салаева М.С., Бекназарова Х.Х. Формирование мобильности личности как педагогическая проблема // Scientific progress. Volume 3 | ISSUE 3 | 2022. -Pages 384-390. <http://www.scientificprogress.uz/storage/app/media/3-3.%20065.%20384-390.pdf>

18. Салаева М.С., Джумабаева М.Б. Педагогнинг кичик мактаб ёшидаги болаларни ижтимоий мобиллигини оширишга таъсири // Ijtimoiy Fanlarda Innovasiya Onlayn Ilmiy Jurnali. Impact Factor: 8.2 SJIF: 5.426 - Б. 59-62. <http://www.sciencebox.uz/index.php/jis/article/view/1552>

19. Салаева М.С., Ким Х.В. Формирование положительной мотивации у младших школьников к учебной деятельности// World of Scientific news in Science International Journal. 2024 Vol. 2 №. 4. – Pp.

20. 147-153. <https://worldofresearch.ru/index.php/wsjc/article/view/439>

21. Salayeva M.S., Koshnazarova M.A. Shaxs mobilligini shakllantirish pedagogik muammo sifatida // Journal of science-innovative research in Uzbekistan” jurnali. Volume 2, ISSUE 1, ResearchBib Impact Factor: 8.654/2023 ISSN 2992-8869. 2024. January. -Pp. 16-25.

22. Salaeva M.S., Luxmanovna N.M. Kichik maktab yoshdagi o'quvchilarni ijtimoiy faolligini rivojlantirish // Scientific progress. Volume 3 | ISSUE 3 | March, 2022. - Pages 380-383.

23. <http://www.scientificprogress.uz/storage/app/media/3-3.%20064.%20380-383.pdf>

24. Салаева М.С., Мамадалиева У.С. Развитие когнитивной мобильности учащихся в начальном образовании / “Xorijiy tillarni o'qitishda yangicha



yondashuvlar” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy onlayn anjumani. Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti – T.: “Firdavs-Shoh” nashriyoti, 2022 – B. 276-281.

25. UNESCO. Education for Sustainable Development Goals. – Paris, 2017.

26. Xojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2002.

